



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan tezis va maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

Melanxolik – ichki olami nozik inson, omadsizliklarni juda qiyin kechiradi, ammo tashqaridan atrofdagilarga kam e'tiborli. Uning tuyg'ulari chuqur va doimiy.

Ustoz talabani temperamenti ko'ra, u bilan muomala uslubini tanlab oladi. Ba'zan sabr qilishga, xotirjamlikni saqlab qolishga, xis tuyg'ularini, ayniqsa jahlni nazorat qilishga to'g'ri keladi. Dars vaqtida ustoz tetik, bardam, kayfiyati yuqori holatda bo'lishi o'ta muhim. Muomala vaqtida albatta oltin o'rtaliqni topish kerak. Ya'ni, ustoz ham, talaba ham dars jarayonidan asabiylashib emas, balki zavq olib chiqib ketishi kerak.

Bundan tashqari, talabaga asar tanlashda, ansmblda taqsimot vaqtida ham uning temperamentini hisobga olish samarali natijalarni beradi. Past ovozda, sokin kuylanadigan qismlar yoki asarlarni flegmatik temperamentli talabaga, tez ijro talab etiladigan asarlarni esa sangvinik va xolerik temperamentli talabalarga berish mumkin. Aslida, bunday talabalardan hohishini so'rasangiz, tanlagan asari ham o'zining temperamentiga mos asar bo'lib chiqadi.

Umuman olganda, xonandalik ta'limida faoliyat olib boradigan ustozlar mehnati murakkab, juda katta mashaqqat va mehnat talab etadi. Bu kasb egalari doimiy izlanishda bo'lishlari va o'z ustida tinmay ishlashlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Aleksey Kolyada "Psixologiya vokala", Moskva, 2016.
2. Agin, M.S. "Razvitiye vokalnoy texniki. Golos i rech". – 2010. – № 2 .
3. Liza Mond "Zdorove golosa pevsa", Moskva 2019.
4. Matyakubov Sh "An'anaviy xonandalikda o'qitish uslubiyati" T.: 2015 y.
5. L.B.Rudin "Osnovi golosovedeniya". Moskva - 2009.
6. Abdullayev A.S. "Stroyeniye golosovogo apparata i rol yego chastey v protsesse golosoobrazovaniya." amaliy ishlanma. Oryol. 2017 yil
7. Ogorodnov D.Ye. Metodika muzikalno-pevcheskogo vospitaniya. SPb., 2014.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING MUSIQIY BILISH IMKONIYATLARI

Farxod FARMONOV,

Turkiston yangi innovatsiyalar universitetining magistranti,

Ilmiy rahbar: **Olimjon KARIMOV,**

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi dotsenti,

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹⁰⁹ degan so'zlari barchamizni to'liqlantirib yubordi va O'zbekistonimizning barcha talaba–yoshlari

¹⁰⁹Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. «O'zbekiston», 2017.

qalbiga g'ayrat, shijoat, chinakam bilim olish hamda Vatanga sadoqatli va kerakli inson bo'lish hissini o'yg'otdi.

Musiqqa ta'limi orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy-estetik didi, musiqiy bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi, musiqiy qobiliyatlari rivojlantiriladi, musiqiy bilim va tasavvurlar ularni qiziqtirish orqali amalga oshiriladi.

Xalq musiqasida milliy qadriyatlar keng aks etgani bois, bolalar uchun kuchli tarbiyaviy ta'sir vositasiga aylanadi. Shu munosabat bilan kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida musiqiy qiziqishlarni izchil rivojlantirib borish orqali ularni estetik tarbiyalash davr talabiga aylanmoqda.

Mazkur yo'nalishda qo'llanilayotgan va yangi joriy etilayotgan pedagogik ish usullari ta'lim maqsadlarini, ya'ni o'quvchilarni musiqiy faoliyatlarga qiziqishlarini muvaffaqiyatli shakllantirishda muhimdir.

O'quv mashg'ulotlarida musiqiy qiziqishlarni shakllantirib borish uchun bolalarda ushbu faoliyatga nisbatan ehtiyojlar mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maktab o'quvchilarida musiqaga nisbatan qiziqishlarni muntazam, uzluksiz tarzda shakllantirib borishga harakat qilish maqsadga muvofiq. Bu esa, o'quvchilarida musiqiy bilimlar bilan birga, milliy an'ana va qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va ehtiromni ham tarbiyalashning muhim omilidir.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari musiqa asarlarini to'g'ri idrok eta olish, xotira, ular haqida tahliliy fikr va mulohazalar bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'quvchilarida amaliy kuylash ovozi ma'lum diapazon chegaralarida mavjud bo'lib, tiniq intonatsiya, kuylash imkoniyatlarini o'zida namoyon etadi.

Biroq, bolalarda jamoaviy kuylash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hali yetarli shakllanmagan, jamoaviy ijro bo'yicha ma'lum tajriba ularda mavjud bo'lmaganligi sababli, kuylashda ko'p hollarda qiynalishlari kuzatiladi. Shuning uchun, aynan kichik maktab yoshidan boshlab bolalarda kuylash malakalarini samarali shakllantirib borish uchun ularda qiziqishlarni tarbiyalab borish talab qilinadi. Zero, ushbu ish usuli o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar ongida musiqiy qiziqishlarning shakllanishi ularda yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlariga nisbatan ko'nikma va malakalarning vujudga kelishiga imkon yaratadi.

Chunki, kuylash - musiqani idrok etishni rivojlantirish uchun muhim metodlardan biridir. Shunga asosan, o'quvchilar musiqani idrok etganini ko'rsatadigan harakatlar orasida: kuylash, qo'shiq notasini yozish muhim o'rin egallaydi. Bularning barchasi musiqani tez va ongli idrok etishga, asar muallifining badiiy maqsadini aniq anglashga, uni tez o'zlashtirishga ko'maklashadi.

Ushbu faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida qiziqishlarni tarbiyalashga asosiy urg'u berilishi zarur. Agar birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarga musiqa haqida hikoya, rasmlar, cholg'u sozlari suratlari, unli va undosh tovushlarni jamoa bo'lib kuylash, notalar nomlarini turli ish usullari orqali o'rganish, marsh va raqs

singari dastlabki musiqa janrlari borasida ma'lumotlar berilsa hamda bir nechta bolalar qo'shiqlari jamoa bo'lib kuylansa, ikkinchi sinfda keyingi bosqichga o'tiladi.

Ikkinchi sinfda "Do'loncha", "Qashqarcha", "Dutor bayoti", "Qari Navo" singari xalq kuylari, shuningdek, F.Nazarovning "Maktabim", "Paxtaoy", "Paxtaoyning bayrami", N.Norxo'jaevning "Kitobim qo'limda", Il. Akbarovning "O'ynaylik" singari qo'shiqlari kuylanadi va bolalar ushbu qo'shiqlarni ijro etishni o'rganib oladilar.

Bu qo'shiqlarning milliy negiz va asoslarda yaratilganligini nazarda tutiladigan bo'lsa, ushbu qo'shiqlar bolalarda musiqiy qiziqishlarni shakllantirish ishiga muhim hissa qo'shishi mumkin.

Bundan tashqari, darsda o'quvchilarni taniqli kompozitorlar va musiqa ijodkorlarining hayoti hamda ijodiy faoliyati bilan, mazkur ijodkorlarning yaratgan yirik asarlari bilan tanishtirish o'quvchilarda musiqiy qiziqishlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jumladan, birinchi sinfdan yettinchi sinfgacha o'quvchilar "Musiqa" darslarida mamlakatimizning, shuningdek, qardosh xalqlarning mumtoz hamda zamonaviy kompozitorlari asarlarini o'rganadilar. Ularning ijodi bilan tanishish barobarida, asarlaridan parchalar ijro etishni o'rganadilar, asarlarni bir-biri bilan qiyoslaydilar hamda ularga nisbatan o'z fikr va mulohazalarini bildiradilar.

Maktab musiqa ta'limi birinchi navbatda o'quvchilarning yoshi va aqliy imkoniyatlari jihatidan yo'lga qo'yiladi va ularda musiqiy qiziqishlarni izchil shakllantirib borish jarayonida e'tiborga olinishi zarur.

Musiqa ta'limi pastki sinflarda ko'p qirrali tarzda amalga oshirilishi jarayonida, uchinchi sinf o'quvchilarining kuylash malakalarini izchil singdirib borish orqali ularda musiqiy qiziqishlar va badiiy - estetik did shakllantirib boriladi.

O'quvchilar bir xil tovush balandligida kuylab, unison ijroning xususiyatlarini, ansamblga erishishning naqadar qiziqarli va o'ziga jalb etuvchi badiiy jarayon ekanligini bilib oladilar. Bolalardagi vokal ovoz mavjudligi yoki past darajada ekanligidan qat'iy nazar, har bir bolada kuylash malakalarini ma'lum darajada shakllantirish mumkin.

Boladagi yosh xususiyatlari va tovushni to'g'ri rivojlantirish qonuniyatlariga tayangan holda musiqiy qiziqishlarni tarbiyalash ularning to'g'ri rivojlanishiga imkoniyat yaratadi hamda musiqani to'laqonli idrok etishiga zamin hozirlaydi.

O'qituvchining dars jarayonida ma'lum pedagogik yutuqqa erishishi uning badiiy ijro ahamiyatini qanchalik chuqur tushunishiga, o'quvchilarda musiqiy qiziqishlarni, kuylash malakalarini shakllantirish usullari, bolalar ovozining xususiyatlarini bilishiga, qo'shiq materialini o'zlashtirish ishini qanchalik samarali tashkil eta bilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Shunga binoan, o'qituvchining qo'shiqlar vositasida musiqiy qiziqishlarni izchil shakllantirib borish imkoniyati aynan o'quvchilarda vokal faoliyatga nisbatan munosabatni shakllantirib borishiga bog'liqdir.

O'quvchilarning kuylash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida o'qituvchi bolalarning vokal imkoniyatlarini bilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, 6, 7 yoshli

bolalarda bu imkoniyatlar uncha keng emas. Chunki, bolalarning ovoz apparati hali to'liq shakllanmagan. Bu esa darsda inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Birinchi sinf o'quvchisining ovoz diapazoni birinchi oktava **mi** - **sol**, **fa** - **lya** diapazoni oralig'ida kuzatiladi. Shuning uchun tanlanadigan repertuar aynan ushbu ijro diapazoni chegarasida bo'lishi talab etiladi.

Ikkinchi sinf o'quvchilarining kuylash diapazoni ancha kengayib, ijro jarayonida ularning ovozi asosan birinchi oktava **mi** - **si** tovushlari oralig'ida yorqin jaranglaydi. Bu tovush diapazoni ayniqsa, tinglash idroki uchun ham qulay diapazon bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, u tovush boylamlarining imkoniyatlari orqali belgilanadi, ya'ni, tovush boylamlari hali ancha ingichka, yupqa va qisqa bo'ladi. Bu esa musiqa mashg'ulotlarida, dars jarayonida o'quvchilarning ovozi zoriqtirmasdan, musiqiy qiziqishlarni izchil shakllantirib, yengil va yorqin ijro etishiga erishish bilan bog'liqdir.

Ikkinchi sinf oxirida o'quvchilar kuylash diapazonining o'rta chegarasi mustahkamlanadi va takomillashadi. Tovush tembrini ijro etiladigan qo'shiq xarakteriga ko'ra jilolanib, o'zgarib boradi. Kuylash diapazoni esa birinchi oktava **re** dan ikkinchi oktava **re** ga tenglashadi. Ba'zi bolalarda kichik oktavaning **si**, **lya** tovushlari, ba'zilarida esa ikkinchi oktava **mi** ham chiroyli yangraydigan bo'ladi.

Uchinchi sinfdan deyarli barcha o'quvchilarning ovozi birinchi oktava **do** dan ikkinchi oktava **re** diapazoniga tenglashib qoladi, ba'zilarida yuqori ovoz ikkinchi oktava **mi** gacha chiqib qoladi. Ayrim o'quvchilardagi tez jismoniy o'sish ulardagi musiqiy qiziqishlarning yorqin ifodalanishiga, kuylash ovozi ham tez yetilishiga shart - sharoit yaratadi.

Yetti - o'n yoshdagi bolalarning ovozi kichik amplitudaga ega bo'ladi. Ular ijrosida asosan **mp** va **mf** singari dinamik belgilarni keng qo'llash samarali natijalarga olib keladi.

Ovoz diapazonining barcha chegaralarida o'quvchilardan yorqin ovoz tembrini, yoqimli va chiroyli ijroni talab qilish qiyin. Bunga misol tariqasida aytish mumkinki, ovoz diapazonining pastki chegarasida baland kuylash va aksincha yuqori nuqtalarda past kuylashni talab qilish bolalar ovozi ma'lum darajada xastalanishiga olib kelishi mumkin. Ovozning sifatli jaranglashi faqat ovoz diapazonining o'rta chegaralarida yuzaga keladi.

Masalan, uchinchi sinf darsligida keltirilgan D. Omonullayeva musiqasiga mansub "Vatanjonim-vatanim" qo'shig'ida vatanparvarlik mavzusi ilgari surilgan. Qo'shiqni kuylash orqali bolalar ongida Vatanga, el-yurtga nisbatan mehr muhabbat, milliy g'urur tuyg'ulari shakllanib boradi. Bu esa o'quvchilarning musiqiy qiziqishlari namoyon bo'lib, asarni ravon va erkin ijro etishiga yo'l ochib beradi. Mazkur qo'shiqni ijro etishda nafasni to'g'ri olishga erishilsa, ijro yuqori saviyada bo'lishiga erishish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining vokal ijrosida ovoz tembrining shakllanishi jarayoni jadal kechadi. Shuning uchun bolalar ovozi tembrini o'qituvchining doimiy diqqat markazida bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu yoshda bolalar ovozi tembrini ayniqsa unli tovushlarni kuylashda notekis namoyon

bo‘ladi. Shu bois, ular ovoz diapazonidagi barcha tovushlarda tekis va ravon, yorqin jarangdorlikka erishishga harakat qilish zarur.

To‘rtinchi sinf o‘quvchilari ijrosida pastki va yuqori diapazonda ovozlarning xarakterli jihatlari sezila boshlaydi. Bu ko‘krakdan nafas olish orqali kuylashda ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular ovozi ustida muntazam, rejali tarzda ish olib borilsa, bolalar ovozi mustahkamlanadi va rivojlanadi. Natijada bolalar yuqori saviyali ijroga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarda musiqiy qiziqishlarni shakllantirishda nafas olish texnikasiga katta ahamiyat qaratish lozim. Buning uchun bolalarning bevosita kuylash vositasida ijroviy malakalarini shakllantirishga harakat qilish zarur.

Vokal ijroda bolalarning qo‘shiq so‘zlariga e‘tibor berishini to‘g‘ri tashkil etish lozim. Shundagina ular qo‘shiqdagi har bir so‘zning qadrini, unda ifodalangan milliy madaniyat, ma‘naviyatni aks ettiruvchi quvvatini his etadi.

Musiqqa ijrochiligida cholg‘u sozlarning ham o‘z o‘rni bor. Darsda turli milliy cholg‘u sozlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar berish o‘quvchilarning musiqiy qiziqishlarini oshirish bilan birga, ularning milliy cholg‘u sozlari tarixiga oid bilimlarini ham boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Jumladan, o‘zbek xalq musiqqa merosi boshqa ko‘pgina Sharq xalqlari musiqasi kabi, folklor hamda og‘zaki an‘anadagi professional musiqqa turlariga bo‘linadi. Cholg‘ular ham o‘z navbatida, faqat folklor janrlari ijrochilari qo‘lida hamda professional musiqqa ijrochilari tomonidan ishlatiladigan turlarga bo‘linganligini ko‘ramiz. Bu haqda o‘quvchilarga oddiy, sodda tarzda ma‘lumot berish ularning cholg‘u sozlariga qiziqishlarini oshiradi.

Faqatgina ta‘lim jarayonini oqilona tashkil etish orqali o‘quvchilarda musiqiy qiziqishlarni shakllantirish mumkin. Bu esa ta‘limda qulay texnologiyalar va metodikalarni izchil joriy etish orqali ta‘minlanishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Саидий, Саид Болта-Зода, Лады Узбекского народа и средневековые лады. *Science and Education* 3 (8), 169-174

2. Саид Болта-Зода Саидий, Эстетика и музыка, связь между ними. *Science and Education* 3 (8), 217-223

3. Saidiy S.B. "Markaziy Osiyo madaniyati tarixi urma zarbli cholg‘ular" // O‘quv qo‘llanma. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent-2008 yil.

4. Kayumov I. F. Values and aesthetic factors in the formation of culture and art // *International Engineering Journal For Research & Development*. – 2020. – T. 12. – №. 1. – С. 10.

5. Ibragim Fayzullayevich Kayumov. Xalq qo‘shiqlari asosida boshlangich sinf o‘quvchilarining nutqiy malakasini o‘stirish usullari // *Scientific progress*. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-qo-shiqlari-asosida-boshlangich-sinf-o-quvchilarining-nutqiy-malakasini-o-stirish-usullari> (дата обращения: 26.10.2023).

6. Каюмов И. Ф. и др. Санъатнинг турлари ва ularнинг тарбиявий аҳамияти // *Science and Education*. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 849-854.

7. Kayumov I. F. Formation of composing art in uzbek music // *Researchjet journal of Analysis and Inventions*. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 61-65.

8. Каюмов Иброхим Файзуллаевич. Важность внеклассных занятий в развитии музыкальных способностей // *Academy*. 2021. №3 (66). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/vazhnost-vneklassnyh-zanyatiy-v-razvitii-muzykalnyh-sposobnostey> (дата обращения: 26.10.2023).

9. Kayumov Ibragim Fayzullaevich. 2022/12/20 Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali o'zbek xalq musiqa ijodining keyingi yillardagi taraqqiyot yo'llari T.2, 12, 19-23-b

10. Ibrohim Fayzullayevich Qayumov 2022/9/5 Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixidan tom 2 ynomer 15 str 40-43

11. Ибрагим Каюмов. 2021/6/24 ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) [Психологическая диагностика музыкального слуха](#) Том 22 Номер 22

12. Каримов О. И. Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов //Academy. – 2020. – №. 3 (54). – С. 78-80.

13. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo'lishi va milliy cholg'u ijrochiligidagi o'rni //Scientific progress. – 2021. – T. 1. – №. 5. – С. 767-771.

MUSIQA MADANIYATI FANIDA INTEGRATSION YONDOSHUV

D.I. ILHOMJONOVA,

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-kurs magistranti,
Ilmiy rahbar: **G'.M.Xudoyev, O'zDSMI professori v.b., PhD.**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada musiqa ta'limi jarayonida boshqa fanlarning tutgan o'rni va o'zaro bog'liqlik jihatlar turli misollarda keltirilib o'tiladi. Shuningdek, musiqa ta'limining o'qitilishi bo'yicha yaqin tarix sobiq sho'rolar davri bilan mustaqillik davri musiqa madaniyati fanining o'qitilishi qiyosiy o'rganiladi.*

***Kalit so'z:** ta'lim, ijtimoiy, musiqa, fan, integratsiya, dars, sinf.*

Musiqa ilmini mukammal o'rganishda – adabiyot fanining o'qitilishi ham san'at sifatida azaldan musiqa bilan uzviy bog'langan. Bunda she'riyat va musiqiy vaznlar, aruz o'lchovlari asosida mushtarak o'rganilgan. Shu bois ko'pchiligi adiblar va olimlar musiqa ilmining rivojiga salmoqli ulush qo'shganlar madrasalardagi o'ziga xos badiiy ta'lim musiqa merosimizning rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu ko'proq so'fiylar ta'limoti ta'sirida maqomlar hamda darvishlar, zikrchilar va qalandarchilikning musiqiy-badiiy mazmunida falsafiy g'oyalarning rivojlanishi uchun muhim rol o'ynagan.

Sho'ro davrida O'zbekiston maktablarida musiqa san'ati fan sifatida o'qitilganligi, ijobiy hol bo'lgan, albatta. Bunda muayyan tajribalarga maxsus kadrlar tayyorlashga yosh avlodning musiqa madaniyatini tarkib toptirishga yetarli darajada qodir bo'lolmadi. Bunda quyidagi muammolar sabab bo'ldi:

- Musiqa o'qitish nazariyoti va amaliyoti mazmuni va uslubiyoti tor kommunistik g'oyaviylik qolipidagi Rusiya maktablari dasturlari va o'qitish uslubiyotiga asoslanganligi, milliy musiqiy pedagogikasi bilan uzviy bog'lanmaganligi;

- Musiqa predmetiga ikkinchi darajali fan sifatida qaralib, unga oz o'quv soati ajratilganligi, zaruriy shart – sharoitlar yaratilmaganligi hamda uslubiy va moddiy ta'minotning zaifligi;

qoya qoyatosh sur'atlarining ta'limdagi ahamiyati.....	182
Xudoyqulova N.X. Fortepiano ijrochiligida badiiy talqin (<i>A.Safarovning "Alla" asari misolida</i>).....	187
Карякина Л.М. К вопросу изучения фортепианного концертмейстерского искусства в Узбекистане.....	190
Abduvaliyeva G.K. Milliy musiqa ta'limi tizimida ustoz-shogirdlikning zamonaviy interpretatsiyasi.....	193
Shaxodjayeva M.A. Xonandalik ta'limida psixo-emotsional omillar.....	196
Farmonov F.N., Karimov O.I. Kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy bilish imkoniyatlari.....	198
Ithomjonova D.I., Xudoyev G'M. Musiqa madaniyati fanida integratsion yondoshuv.....	203
Нуруллаев Я.Ф. Музыка как средство воспитания детей.....	208
Rustamova X.J. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining musiqiy faoliyati.....	213
Qudratova S.F. Musiqiy qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	216
Toshpo'lotova Z.O'. Fortepiano cholg'u asbobining genezisi tendentsiyalari...218	
Raximov A.R., Umurova M.Y. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani orqali o'quvchi-yoshlarga o'zbek musiqiy merosini o'rgatish masalalari.....	221
Dustov S.F., Karimov O.I. Musiqa darslarida - o'quvchi yoshlarda ong, milliy tafakkurani shakllantirish vositalari.....	225
Zakirova Z.A. Zamonaviy ta'limning o'quv-tarbiya jarayonidagi mohiyati.....	227
Davlatov O.G'. Meros va mas'uliyat tushunchalarining o'ziga xosligi.....	230